

JUMANIYAZOVA Moxira,

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Ijtimoiy fanlar va huquq kafedrası katta o'qituvchisi
E-mail: moxirajumaniyazova@gmail.com*

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKKA OID ISLOHOTLAR KAFOLATLANISHINING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIDAGI AHAMIYATI

THE SIGNIFICANCE OF ENSURING GENDER EQUALITY REFORMS IN UZBEKISTAN FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS

ЗНАЧЕНИЕ РЕФОРМ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ ДЛЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Annotatsiya. Mazkur maqolada BMTning 80-yubileyi dasturida ko'zda tutilgan barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bergan taklif va mulohazalarining tahliliga bag'ishlanadi. Shuningdek, unda Markaziy Osiyoning integratsiyalashuvida O'zbekistonda, xususan Qozog'istonda gender tenglikka doir davlat siyosatining amalga oshirilishidagi o'ziga xosliklar to'g'risida ham tahliliy xulosalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, mintaqaviy munosabatlar, gender tenglik, integratsiya, xotin-qizlar tenghuquqlilik, ijtimoiy munosabatlar.

Annotation. This article is devoted to the analysis of the proposals and comments made by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on the implementation of the Sustainable Development Goals envisioned in the UN program for the 80th anniversary. It also presents analytical conclusions on the peculiarities of the implementation of state policy on gender equality in Uzbekistan, in particular in Kazakhstan, in the context of the integration of Central Asia.

Keywords: sustainable development, regional relations, gender equality, integration, women's equality, social relations.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу предложений и комментариев, высказанных

Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым по реализации Целей устойчивого развития, предусмотренных в программе ООН к 80-летию. В ней также представлены аналитические выводы об особенностях реализации государственной политики в области гендерного равенства в Узбекистане, в частности в Казахстане, в контексте интеграции Центральной Азии.

Ключевые слова: устойчивое развитие, региональные отношения, гендерное равенство, интеграция, равноправие женщин, социальные отношения.

KIRISH

Bugungi taraqqiy etib borayotgan zamonda ijtimoiy hayotning asosiy sohalarida gender tengligiga erishish hamda uni jamiyatda munosib o'rni ta'minlash kun tartibiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. BMT insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Aynan shu Tashkilot shafeligida YUNISEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, YUNESKO, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki kabi muhim tuzilmalar tashkil etildi. Ushbu institutlar ta'lim, sog'liqni saqlash sohalarini modernizatsiya qilish, kambag'allikka qarshi kurashish va ochlikka barham berish yo'nalishlarida tayanch tuzilmalarga aylandi.

BMT Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrda Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida 70-son rezolyutsiyasi qabul qilinish, 17 ta maqsadga erishish bo'yicha 16 ta maqsadli vazifa tasdiqlangan. Bevosita barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga erishishdan iborat. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham bugun o'zining yangi qiyofasida dunyo sahnasida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayoni natijasida ko'pgina masalalar qatorida gender tenglik bilan bog'liq siyosiy-ijtimoiy holatlarni barqarorlashtirish – mintaqada ham muhim vazifalardan biriga aylandi.

ASOSIY QISM

Qayd etish lozimki, O'zbekistonda so'nggi yillarda gender tengligi tamoyilini jamiyatga singdirish bilan bog'liq amalga oshirilayotgan islohotlar e'tiborga molikdir. Jumladan, 2016-yildan

bugungi kunga qadar gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvida rolini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2 ta qonuni, Prezidentning 9 ta Farmon va qarori, hukumatning 18 ta qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tegishli qarori bilan "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" ishlab chiqildi va hayotga tadbiriq etib kelinmoqda. Gender siyosati masalasi ham e'tibordan chetda qolmadi. So'nggi yillarda O'zbekiston bu mavzuni davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirib, bu borada ulkan yutuqlarga erishdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotdagi o'rni tobora mustahkamlanmoqda. Keng ko'lamli islohotlar natijasida bugun ayollar parlament, biznes, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida rahbar lavozimlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, kasbga o'qitish, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratilayotganligi quvonarlidir. Xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha qonunlarning qabul qilinishi va ijtimoiy dasturlarning kengaytirilishi ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Bugun O'zbekiston o'z misolida ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish nafaqat adolat masalasi, balki mamlakat barqaror rivojlanishining garovi ekanini ko'rsatmoqda. Xususan, BMTning yuksak minbaridan turib davlatimiz rahbari O'zbekiston Osiyo xotin-qizlar forumini o'tkazishga, uni xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini muhokama qilish uchun doimiy platformaga aylantirishga tayyorligini bildirdi. Bu borada O'zbekiston xalqaro tajribaga ega bo'lib, ko'pgina rivojlanib kelayotgan davlatlar uchun ham namuna sifatida ko'rsatilayotganligi fikrimiz isbotidir.

Ma'lumki, gender tenglik jamiyatga oid tushuncha bo'lib, uni zamirida erkaklar va xotin-qizlarning ijtimoiy vazifalarini qamrab oladi. Gender bu – oilaviy va boshqa ijtimoi-huquqiy munosabatlarda erkaklar va xotin-qizlar o'rtasidagi huquq va majburiyatlar tengligi hamda shaxsiy hayotda ularning ijtimoiy roli, mavqei, vazifalarini ifodalovchi tushuncha [3] deb ta'rif berilgan. Sotsiolog olim E.Giddens ta'rifi [5] ga

ko'ra esa, "gender – erkak va ayol o'rtasidagi fizik farqlar emas, balki ayollik va erkaklikning ijtimoiy shakllanishining o'ziga xos xususiyatidir. Umuman olganda, gender tenglik tushuncha sifatida jamiyatga kirib kelgandan buyon davlatlar miqyosidagi islohotlarning tayanch mezonlari qatoriga qo'shilib bo'lgan. Tahlillar natijasida, gender tengligiga erishishning 4 ta modeli kuzatiladi: Gender integratsiya modeli – ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini, siyosiy, xususiy, fuqarolik jamiyati va boshqalarni qamrab oladi. Gender tengligi tamoyilining integratsiyasi tenglik to'g'risidagi muayyan qarashlar barcha sohalarida siyosatning bir qismiga aylanishini nazarda tutadi. Gender tengligi kuch va resurslarni adolatli taqsimlanishini, shuningdek, erkaklar va ayollarning harakatlari va ehtiyojlarini teng baholashni o'z ichiga oladi.

Xususan, qardosh davlat Qozog'istonni bu boradagi islohotlarini ham e'tirof etish lozim. Mamlakat gender tengligi reytingida dunyoning 144 mamlakati orasida 52-o'rinni egalladi. Bu haqida "Gender farqi bo'yicha global hisobot – 2017" Butunjahon iqtisodiy forumining yangi hisobotida e'lon qilindi. Markaziy Osiyo mamlakatlaridan: Qirg'iziston 85-pog'onadan joy olgan bo'lsa, Tojikiston 95-o'rinda joylashdi. Mo'g'uliston reytingning 53-o'rnini egalladi. Tadqiqot to'rtta asosiy yo'nalish: sog'liqni saqlash, ta'lim, iqtisodiy imkoniyatlar va ayollarning siyosiy faoliyati bo'yicha o'tkazildi. Ayollar uchun eng yaxshi imkoniyatlar yaratilgan davlatlar orasida Islandiya, Norvegiya, Finlyandiya, Ruanda va Shvetsiya bor. Gender tengligi reytingidagi eng so'nggi pog'onani Yaman egalladi. Tadqiqotchilarning fikricha, u yerda ayollarning o'z huquqlaridan foydalanishi biroz mushkulroq. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, gender muammolarini hal etishning hozirgi tezligida erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikka faqatgina 100 yildan so'ng erishish mumkin. O'tgan yilda bu ko'rsatkich biroz kamroq edi – ya'ni 83 yil.

Bu borada, 2021-yildan beri Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti shafeligida Markaziy Osiyoda qizlar uchun yetakchilik, murabbiylik va gender tengligi bo'yicha mintaqaviy o'quv lageri o'tkazilib kelinmoqda. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan BMT Markaziy

Osiyoda preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi va "BMT-Ayollar" tashkiloti ko'magida tashkil etildi. Tadbirda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistondan 30 nafardan ortiq qizlar ishtirok etib kelmoqda. O'quv lageri Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan qizlar va istiqbolli kadrlar salohiyatini oshirish, ularda davlat va jamiyat hayotida yanada faol ishtirok etish uchun yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan. O'quv mashg'ulotlarining o'tkazilishi mintaqada ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, qizlarning kasbiy mahorati va yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu kabi tadbirlar zamirida mintaqada ayollar huquqlari va gender tenglik bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni oldini olish hamda sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlashdek ustuvor vazifalar yotadi.

Me'yoriy hujjatlarda va tegishli adabiyotlarda kompleks gender yondashuvni integratsiya qilish uchun davlat strukturasi barcha sohalarida gender tenglik bo'yicha tahlil o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Undan ko'zlangan asosiy maqsad bu jamiyatdagi gender tafovutlar, gender nomutanosibliklar yoki gender asimmetriyasi (notengligi), ya'ni gender kamsitish darajasini aniqlashdir [4].

Hozirgi kunda gender tenglik integratsiyasini qo'llash va amaliy natijaga erishishda Markaziy Osiyoning O'zbekiston, Qozog'iston kabi davlatlari yuqori natija ko'rsatmoqda. Aytish mumkinki, BMT ning 1979-yilda qabul qilgan "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyaga (CEDAW) dunyo davlatlarining 2/3 qismidan ko'prog'i ratifikatsiya qilganligi, ularning orasida mintaqada mamlakatlarining, xususan O'zbekistonning mavjudligi muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz ushbu xalqaro hujjatni 1995-yilda rasman ratifikatsiya qildi. Konvensiyaga muvofiq, ishtirokchi davlatlar Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish bo'yicha qo'mitasiga Konvensiya qoidalarining milliy darajada amalga oshirilishi to'g'risida davriy hisobotlar taqdim etish majburiyatini oladilar (18-modda). Hisobotlar davlatga mavjud vaziyatni tanqidiy baholash, majburiyatlarni oydinlashtirish va Konvensiya qoidalarini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida islohotga muhtoj sohalarni aniqlash imkonini beradi [2]. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda global o'zgarishlar jarayonlari va milliy

miqyosidagi ma'muriy islohotlar sharoitida nafaqat gender siyosat, balki butun milliy statistika tizimi ham takomillashtirilayotganini hisobga olish ham muhimdir. Shu tarzda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son Farmoniga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga aylantirildi. Negaki, Gender siyosatdagi tendensiyalarni hisobga olgan holda uni amalga oshirishda statistik tuzilmalarni isloh qilishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mamlakatlarining integratsion jarayonlarni amalga oshishi bevosita jamiyatda shakllanayotgan o'ziga xos tendensiyalarga bog'liqdir. Gender tenglikka oid ijtimoiy-siyosiy jarayon ham mamlakatlarning xalqaro maydondagi rolini ochib berayotganligi sababli, uni har tomonlama o'rganish, islohotni amalga oshirishda milliy o'ziga xosliklarni hisobga olish ham ahamiyatlidir. Bu borada mintaqada yetakchi mamlakatlar O'zbekiston, Qozog'iston ekanligi, yana boshqa mamlakatlar xususan Qirg'iziston Tojikiston, Turkmanistonning ham islohotlarni qamrab borishi harakatlari kelgusida mintaqada o'ziga xos gender tenglik tendensiyasi takomillashishiga olib kelishi quvonarli natijadir. Xususan, bu borada mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning xalqaro minbarlarda turib barqaror rivojlanishga doir ta'kidlari ayniqsa tahsinga sazovordir. Islohotlarning jadallashuvi mamlakatimizning kelgusi ijtimoiy barqarorligining kafolati bilan izohalanadi albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – "O'zbekiston" – 2023.
2. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiya: parlamentariylar uchun qo'llanma. – Parlamentlararo ittifoq, 2004-yil. – 60-bet.
3. Xoliqova M., Ishanxanova G., Po'latova Sh. Gender tengligi: g'oyadan qonunga qadar: – Toshkent: Akademnashr, 2021. – B. 11-13.
4. F.Xamdamova, X.Saidvaliyeva, M.Raximova, D.Sufiyeva. – Toshkent: Baktria Press, 2023. – B 12.
5. Гидденс Э. Социология. – Москва, 199. – С. 665.